

INGLIZ TILINI O'QITISHDA MATN BILAN ISHLASHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH METODIKASI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11613185>

Kaxarova Mavlyuda Mukaramovna

Filologiya fanlari nomzodi, professor

Yusupova Nodiraxon Erkinjon qizi

Andijon davlat universiteti tayanch doktoranti

binafshatoshtemirova@gmail.com

Annotatsiya

Ushbu maqolada ingliz tili darslarida matn bilan ishlashda innovatsion texnologiyalarning e'tiborga molik jihatlari tadqiq etilgan bo'lib, o'quvchilarning o'qib tushunish kompetensiyasini rivojlantirish uchun yordamchi bir qator veb-sahifalar yuzasidan fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar

sinf dars, veb-sahifalar, innovatsion texnologiyalar, o'qib tushunish kompetensiyasi, masofaviy ta'lim, elektron kutubxona.

Bugungi kunda texnologiyalar har bir sohaning, xususan, ta'lim sohasining ham ajralmas qismiga aylanib ulgurdi. Ayniqsa xorijiy tillarni o'qitish amaliyotida texnologiyalardan foydalanish, o'qitish jarayonini turli multimedia vositalari bilan boyitish zamon talabi bo'lib qolmoqda.

Shuningdek, internet tarmog'ida ingliz tilini o'qitishda o'qib tushunish kompetensiyasini takomillashtirish uchun misoli bir xazina bo'lib xizmat qila oladigan bir qator veb-sahifalar mavjud. Ularga misol sifatida Full Text Archive va Project Gutenberg kabi turli darajadagi ingliz tili o'rganuvchilariga mos tekin minglab elektron kitoblar tavsiya eta oladigan onlayn kutubxonalarni ayta olamiz. Full Text Archive veb sahifasiga tashrif buyurganingizda siz o'z qiziqishingizga mos, turli janrdagi (biografiya, komediya, roman kabi), turli yosh guruhlariga munosib kitoblarni o'z qurilmangizga yuklab olishingiz mumkin. Bu veb sahifaning e'tiborli tomoni shundaki, bu sahifa o'z foydalanuvchilariga o'zaro fikr almashish, so'nggi o'qigan kitoblari haqida mulohazalarini bo'lishish uchun imkoniyat ham yaratadi. Chet tili pedagoglari mana shunday veb-sahifalarni o'quvchilariga tanishtirish orqali o'quvchilarni turli adabiyotlarni o'qishga qiziqishlarini oshirib, shu orqali ularning chet tilidagi o'qish tushunish

ko'nikmalarini yanada rivojlantirishga erishishlari tayin. Project Gutenberg veb-sayti ham o'zida 70000 dam ziyod elektron kitoblarni mujassamlashtirgan. Bu sahifa orqali o'quvchilar ingliz tilidagi buyuk adabiyot namunalarini topishlari va mutolaa qilishlari mumkin. Shuningdek, RedWorks sahifasi ham turli bilim darajasidagi ingliz tili o'qituvchilari uchun autentiv materiallarga (jurnal, gazeta maqolalari, reklama, peshtaxta matnlari va hakoza) boy veb-sahifalar hisoblanadi. RedWorksdagi resurslarni darsda qo'llash orqali o'quvchilarning o'qib tushunish ko'nikmalarini o'stirishi, lug'at boyliklarini oshirishi, dunyoqarashlarini kengaytirishga erishilishi mumkin. Bu sahifa nafaqat autentiv matnlarni, balki o'qib tushunish darajasini o'lchovchi nazorat testlari va lug'at boyligini oshiruvchi interaktiv mashg'ulotlar, matn yuzasidan savollarni qamrab olgan, shu orqali chet tili o'qituvchilari uchun katta ko'makchi bo'lib xizmat qila oladi. Shu bilan birga, mazkur platformada o'quvchilarni mustaqil o'qishga undash maqsadida Student library (Talabalar kutubxonasi) bo'limi ham mavjud bo'lib, talabalar o'zlari istagan ilmiy va badiiy matnlarni tanlab olishlari va o'qishlari uchun imkoniyatlar bor. Bu sahifadan pedagoglar nazorat ishi topshiriqlarini yaratish uchun ham foydalanishlari mumkin.

ESL BITS sahifasi ham ingliz tili o'qituvchilari uchun o'qish darslarini yanada qiziqarli va samarali tashkil etishlari uchun yordam bera oladi. O'quvchilar o'slaei yoqtirgan va darajalariga mos bo'lgan kitoblarni tanlashlari yoki audio formatda eshitishlari mumkin.

O'qib tushunish ko'nikmasini rivojlantirishga qaratilgan darslarga o'zgacha ko'rinish va shukuh olib kirish uchun readinginlevels.cpm saytiga murojaat etish mumkin. Reading in Levels ingliz tili o'rganivchilari uchun maxsus yangiliklar matnini 3 xil darajada namoyish etadi, buning ijobiy tomoni shundaki, o'quvchilar o'zlariga mos darajani tanlash (ma'lumot uchun, agar o'quvchilar o'zlarining bilim darajalaridagi murakkablikdagi kitoblarni o'qisagina, ular o'qish jarayonidan zavqlanadilar, va chet tilidagi o'qib tushunish malakalari oshadi) imkoniyatiga ega bo'ladi. Shuningdek, ular autentiv matndagi o'zlariga noma'lum bo'lgan so'zlarni o'rganishlari, gaplarning mazmuniy va grammatik bog'lanish usullarini o'rganib borishlari mumkin.

Texnologiyalarning ta'limda ahamiyati yuzasidan minglab tadqiqotlar olib borilgan, shunday tadqiqotlardan biri Graham Stanleyning "language learning with technology" nomli risolasida aks etgan. Grahamning fikricha, sinf xonalar texnologiyalar bilan jihozlantirilgani sari o'qituvchilarda "Everest sindromi" (Maddux cited in Gallo&Harson 1994) shakllanishi mumkin. Tabiiyki, "Everest sindromi" nima degan savol tug'iladi. "Everest sindromi", ya'ni texnologiyalardan

ma'lum ta'limiy maqsadlarda (dars mavzusi, maqsadi, vazifalariga mos kelmasada) emas, balki ulardan mavjudligi va qulayligi uchungina foydalanishdir. Shuning uchun ham muallif o'z risolasida boshqa qo'llanma kitoblardan farqli ravishda texnologiyalarning darsda shunchaki maqsadsiz qo'llanilishi borasida fikr yuritmaydi. U darsda texnologiyalarning tadbiq etilishining natijalari va ijobiy yutuqlari yuzasidan o'z mulohazalarini bayon etadi. O'z fikrlari davomida tadqiqotchi texnik qurilmalardan qachon va qanday holatda dars jarayonida foydalanishga oid yondashuvlarini ta'kidlab o'tadi. Graham Stanley multimedia vositalarini darsda qo'llashdan oldin quyidagi 5 savolga javob izlash lozimligini aytib o'tadi:

1) Nima maqsadda texnologiyalardan foydalanish kerak, ya'ni texnologiyalardan faqatgina ular mavjud ekanligi uchungina emas, balkim ulardan erishiladigan maqsadni ko'zda tutish lozim. Agar texnologiyalar ta'lim jarayonini yaxshilamasa shunchaki ulardan foydalanmaslik kerak.

2) Kimlar uchun texnologiyalardan foydalanish eng samarali hisoblanadi, ya'ni texnologiyalar ishtirokida tashkil etilgan mashg'ulotlar yoshi va bilim darajasiga mosmi?

3) Nima uchun, yoki qaysi ko'nikmalarni shakllantirish uchun texnologiyalardan foydalanish lozim. Ma'lum bir texnik qurilmadan foydalanish qaysi til ko'nikmasini rivojlantirishga yordam beradi (misol uchun, audiovizual qurilmalar eshitib tushunish ko'nikmasini rivojlantirishda katta ahamiyatga ega)?

4) Qayerda texnologiyalardan foydalanish lozim. Bu sinf dars uchun mosmi, masofaviy dars mashg'ulotlari uchunmi, yoki uy topshiriqlarini bajarayotgan paytda ma'quldir? Shu bilan birga, sinf xonani nazorat qilish (classroom management) borasidagi muammolarni ham o'ylab ko'rish tavsiya etiladi. Texnik qurilmani sinf xonasining qaysi qismiga joylashtirish ma'qul (masalan, xonani video proyektorni joylashtirishda xona yoriqligi, ekran uchun devor o'lchami e'tiborga olinishi kerak), yoki bir guruh o'quvchilar multimedia vositalari bilan ishlayotgan vaqtda, qolgan o'quvchilar nima qilayotgan bo'ladi? Shu kabi savollar pedagoglar tomonidan har bir dars rejasini tuzayotgan paytda e'tiborga olinishi dars samaradorligini oshiradi.

5) Qanday usulda texnologiyalardan foydalanish mumkin. Bunda qaysi dars mashg'uloti dars maqsadiga, vazifasiga mutanosib tarzda darsni yanada boyitishga xizmat qiladi?

Darsni tashkil etish, turli texnik vositalardan foydalanishga nisbatan yuqoridagidek yondashuv orqali pedagoglar dars samaradorligini oshirishi va

o'quvchilarning chet tilidagi bilimlarini mustahkamlashda muvaffaqiyatga erishishi mumkin.

Xulosa qilib aytishimiz mumkinki, ingliz tilini o'qitishda innovatsion texnologiyalardan o'rinli foydalanish darsning samaradorligini oshiribgina qolmay, balki o'quvchilarning darsga qiziqishini oshirishda, ularni chet tilini o'rganishlari uchun haqiqiy autentiv muhitni yaratishda muhim vazifani bajaradi. Zamonaviy multimedia vositalari va internet tarmog'idagi til o'qitishga ixtisoslashtirilgan veb-sahifalarini samarali qo'llash ham o'qituvchidan katta mahorat talab etadi. Shuning uchun ham ayta olamizki, zamonaviy texnikalar san foydalanish borasidagi kompetentlik zamonaviy o'qituvchi professiodiagrammasining bir qismi hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Z. Pazilova "Tillar o'qitish metodikasi va ta'lim texnologiyalari". Toshkent-2023
2. Serda Güzel "The importance of reading activities in reading comprehension". Interdisciplinary innovation studies"-2023.
3. Graham Stanley "Language learning with technology". Cambridge University press 2013.
4. Krasnova A. A., Belyaev M. I., Solov'ev A. V. Technologies for creating elearning tools: 2nd edition. - Moscow: MGIU, 2002.
5. Khodzhaeva Sh. A. Innovative technologies of teaching a foreign language // Young scientist. - 2016. - No. 25.